

**Xizmat safari xisoboti 21.09.2023 y 01.09.2023 y Belorussiya
2023 yilning 21-26 avgust kunlari Korxonalar va ta'lim muassasalari bilan ishlash
bo'yicha prorektor Anvar Normamatovich Shernaev, Xorijiy Oliy ta'lim
muassasalari bilan hamkorlikdagi qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtiruvchi
bo'lim boshligi o'rinbosari Laylo Sayfiyevna Razakova hamda TKTI Yangier filiali
Umumtexnik fanlar kafedrasini mudiri Muxammadjon Samadkulovlar xizmat safari**


2023 yilning 21 avgust kuni Toshkent kimyo-texnologiya institutida qo'shma ta'lim dasturlari asosida 2+2 ta'lim shakli bo'yicha bakalavriat bosqichida 2 kursni hamda 1+1 ta'lim shakli bo'yicha magistraturaning 1 kursini tamomlagan talabalar qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha o'qishni davom ettirish uchun Belorussiyaning Minsk va Mogilev shaharlariga jo'nab ketishdi. Institutning talabalariga Korxonalar va ta'lim muassasalari bo'yicha prorektor Anvar Normamatovich Shernayev, Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshligi o'rinbosari Laylo Sayfiyevna Razakova hamda TKTI Yangiyer filiali umumtexnik fanlar kafedrasini mudiri Muhammadjon Samadkulovlar hamrohlikda jo'nab ketishdi. Ushbu yo'nalishda hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida Yanka Kupala nomidagi Grodo Davlat universiteti, Polosk Davlat universiteti, Belorussiya Davlat Texnologiya universiteti hamda Belorussiya davlat universitetining Xalqaro Ekologiya universiteti bilan 2023 yilning 22-28 avgust kunlari uchrashuvlar bo'lib o'tadi. Uchrashuvlarda O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 iyuldagi 309 sonli "NEFT VA GAZ SOHASIDA TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH KLASTERINI TASHKIL ETISH CHORATADBIRLARI TO'G'RISIDA"gi qarorida belgilangan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy, ta'lim fan va innovatsiyalar vaziri rahbarligida 2023-yil 18-fevral kuni o'tkazilgan yig'ilish 6-son Bayoni hamda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-martdagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida raqamlashtirish jarayonlarini takomillashtirish to'g'risida"gi 49-son bo'yruqi, O'zbekiston Respublikasi Oliy, ta'lim fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 10-apreldagi 85-son buyruqi da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida kelishuvlar olib boriladi va shartnoma loyihalari tayyorlanadi.



2023 yilning 21-26 avgust kunlari Korxonalar va ta'lim muassasalari Bilan ishlash buyicha prorektor Anvar Normamatovich Shernaev, Xorijiy Oliy ta'lim muassasalari Bilan hamkorlikdagi kushma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshligi o'rinbosari Laylo Sayfievna Razakova hamda TKTi Yangier filiali Umumtexnik fanlar kafedrasini mudiri Muxammadjon Samadkulovlardan tashkil topgan Toshkent kimyo texnologiya instituti delegatsiyasi Belorussiyalik hamkorlarimiz Mogilyov shaxridagi Belorussiya davlat oziq-ovqat va kimyoviy texnologiyalar universitetida, Yanka Kupala nomidagi Grodno davlat universitetida, Belorussiya davlat texnologiya universitetida hamda Xalqaro ekologiya universitetida qo'shma ta'lim dasturlarini rivojlantirish, yangi ta'lim yo'nalishlarini tashkil etish, kimyo va oziq-ovqat sohalarining injenerlik yo'nalishlarida hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha yangi kelishuv va shartnomalar loyihalari tayyorlandi. Bundan tashqari 2023-2024 o'quv yilidan boshlab o'qishlarini davom ettiradigan bakalavriat va magistratura talabalarini talabalar Turar joyiga joylashtirish, migrasiya xizmatidan ro'yxatdan o'tkazish, tibbiy ko'rikdan o'tkazish, talabalarni universitet va shahar Bilan tanishtirish kabi ishlar amalga oshirildi. Hamkorlik doirasida Grodno davlat universiteti Bilan hamkorlikda Oliy ta'lim muassasasida o'quv va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish hamda ta'lim yo'nalishlarini Xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha yo'l xaritasi tayyorlandi, hamkor universitet Bilan ilmiy tadqiqot, professor o'qituvchilar stajirovkalari hamda talabalar almashinuvi dasturi bo'yicha 2023-2024 o'quv yilida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha kelishuvlar amalga oshirildi.







2023 yilning 25 avgust kuni TKTI delegatsiyasi Grodno shaxrida joylashgan ilmiy va ishlab chiqarish texnoparklari va Hamkorlar ilmiy o'quv laboratoriyalari bilan tanishildi.


mufti Igor Kozminovich Boleko hamkorligida Silobalarga universiteti ilmiy markazi tanishtirildi.

2023/08/25 17:22
2023/08/25 15:12
2023/08/23 15:55
2023/08/22 10:36
2023/08/22 10:38

RELATSIYA, MCHJ-S, ILE MCHJ-S
Aslopo - 5 zang-onam MCHJ-S, ANDREIYEVICH
guzel va junda, MCHJ - 3, MCHJ-S, MCHJ-S, MCHJ-S, MCHJ-S
guzel va junda, MCHJ - 3, MCHJ-S, MCHJ-S, MCHJ-S, MCHJ-S
Kompaniya, VI-1



Belorussiya davlat texnologiya universitetida o'qishini davom ettirishga kelgan Talabalar yashash sharoitlari Bilan tanishildi, Yog'chsozlik va yog'ochni qayta ishlash kafedrasi mudiri Igor Konstantinovich Bojelko hamrohligida talabalarga universitet ukuv binolari tanishtirildi.



2023 yil 25 avgust kuni kuning ikkinchi yarmida Polosk davlat universiteti rektori Yuriy Yasentovich Romanovskiy va Brest davlat universiteti rektori Yuriy Petrovich Golubev Bilan uchrashuv utkazildi, uchrashuvda Neft va gaz yunalishida qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash sohasidagi amalga oshiriladigan ishlar hamda ilmiy tadkikot yunalishida kushma loyihalar tayyorlash bo'yicha kelishuvlar amalga oshirildi.



Korxonalar va ta'lim muassasalari bilan ishlash bo'yicha prorektor

A.N. Shernayev